

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI

Ibragimov To‘lqin Tohirovich

*Tashkent davlat tibbiyot universiteti. O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Farobiy ko‘chasi, 2. Telefon raqami: + 998 (78) 150-78-25.
e-mail: tulkinibragimov7@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik sub’ektlarining huquqiy maqomi va ularning turlari, tadbirkorlik huquqi sub’ektlarining tasniflari, kichik tadbirkorlik sub’ektlari, jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati, yuridik shaxs sifatida faoliyat olib borish, tijorat tashkilotlari, tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining huquqlari, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining majburiyatlari, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining birlashmalari, tadbirkorlik faoliyati sub’ekti huquqlarining ustuvorligi kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik sub’ektlari turlari, tadbirkorlik sub’ektlarining huquqiy maqomi, tadbirkorlik sub’ektlarining, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, yuridik shaxs, xususiy korxona, oilaviy tadbirkorlik, mas’uliyati cheklangan jamiyat, qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari, xo‘jalik shirkatlari.

ВИДЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Ибрагимов Тулкин Тахирович

*Ташкентский государственный медицинский университет. Республика Узбекистан, г.Ташкент, ул. Фарабий, 2. Телефон: +998 (78) 150-78-25.
Электронная почта: tulkinibragimov7@gmail.com*

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как правовой статус хозяйствующих субъектов и их виды, классификация хозяйствующих субъектов, малые хозяйствующие субъекты, совместная хозяйственная деятельность физических лиц без образования юридического лица, функционирование в качестве юридического лица, коммерческие организации, некоммерческие организации, права хозяйствующих субъектов, обязанности хозяйствующих субъектов, объединения хозяйствующих субъектов, приоритет прав хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: виды хозяйствующих субъектов, правовой статус хозяйствующих субъектов, свобода хозяйствующих субъектов, юридическое лицо,

частное предприятие, семейное предпринимательство, общество с ограниченной ответственностью, общества с дополнительной ответственностью, акционерные общества, товарищества.

TYPES OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY

Ibragimov Tulkin Tokhirovich

Tashkent State Medical University. 2. Farobiy Street, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

Phone number: +998(78)150-78-25.

e-mail: tulkinibragimov7@gmail.com

Annotation: *This article considers issues such as the legal status of business entities and their types, classifications of business entities, small business entities, joint business activities of individuals without forming a legal entity, activities as a legal entity, commercial organizations, non-commercial organizations, rights of business entities, obligations of business entities, associations of business entities, priority of rights of business entities.*

Keywords: *types of business entities, legal status of business entities, freedom of business entities, entrepreneurial activity, legal entity, private enterprise, family entrepreneurship, limited liability company, additional liability companies, joint-stock companies, business partnerships.*

Kirish

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar tadbirkorlik sub’ektlari hisoblanadi. Ularning huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi, “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi, “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi qonunlarda va boshqa konunchilik hujjatlarida belgilangan.

2012 yil 2 mayda yangi tahrirda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 328-son Qonuniga asosan, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari (tadbirkorlik sub’ektlari) - bu belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Davlat organlari (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), ularning mansabdor shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari bo‘lishi mumkin emas.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 martdagi 103-sonli «Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro‘yxati to‘g‘risida»gi qarori bilan belgilab qo‘yilgan.

Bu shaxslar quyidagilardir:

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari;
- davlat banklari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlariga, xizmat yuzasidan pul belgilariga va pul (bank) hujjatlariga bevosita aloqasi bo‘lgan mansabdor shaxslar;
- davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari rahbarlari va ularning bank hujjatlariga imzo qo‘yish hukuqiga ega bo‘lgan o‘rinbosarlari;
- davlat ta‘minot va savdo-sotiq korxonalari va tashkilotlarining rahbar xodimlari;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarni hal qilish yoki bunday faoliyatni nazorat qilish vazifasiga kiruvchi davlat organlarining rahbar xodimlari va mutaxassislari.

Davlat organlari - byudjet tashkilotlari byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish ta‘qiqlanadi. Lekin byudjet mablag‘laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda byudjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas‘uliyatini oshirish, byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash mexanizmini soddalashtirish va byudjet mablag‘laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag‘larni oqilona taqsimlash uchun shart-sharoitlar yaratish, byudjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida byudjetdan tashqari mablag‘larga ega bo‘lish imkoniyati berilgan. Bunda qo‘shimcha daromad olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, ya‘ni xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi berilgan. Shu maqsadda 2001 yil 1 yanvardan boshlab byudjet tashkilotlarida Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi shakllantirildi.

Byudjet tashkilotlarini qo‘shimcha mablag‘ bilan ta‘minlash manbalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- faoliyat turi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan;
- byudjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va

davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga homiylik (beg‘araz) yordami berilishidan kelib tushadigan qo‘shimcha daromadlar.

Mazkur mablag‘lar:

- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqalarni;
- mavjud kreditorlik qarzlarni to‘lashga;
- byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga, ijtimoiy rivojlantirish va byudjet tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar foyda ko‘rish maqsadida, tavakkal qilib tovar ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish) bilan shug‘ullanish ixtisoslashgan faoliyatga aylangan taqdirdagina bunday faoliyatning ishtirokchilarini tadbirkorlar deb hisoblash mumkin.

Agar fuqaro bunday harakatlarni alohida hollardagina (vaqti-vaqti bilan) foyda ko‘rishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymay amalga oshirgan taqdirda, masalan, o‘zidagi ortiqcha ashyolarni sotsa yoki ma‘lum xizmatlarni bajarib, keyin buning uchun haq olsa, bunday faoliyat tadbirkorlik faoliyati deb hisoblanmaydi, chunki bu kabi munosabatlar fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Shuningdek, bank muassasalariga foiz olish maqsadida jamg‘arma qo‘ygan fuqarolar, qimmatli qog‘ozlar sotib olgan shaxslar ham tadbirkorlar hisoblanmaydi. Tadbirkorlik sub’ektlari yuqorida ta’riflaganimizdek, davlat ro‘yxatidan o‘tib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari lozim.

Tadbirkorlik faoliyati deganda tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati tushuniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar tadbirkorlik sub’ektlari hisoblanadi:

- davlat ro‘yxatidan o‘tganligi;
- muayyan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari uchun, albatta, ruxsatnoma (lisenziya)ga ega bo‘lishligi;
- o‘z mol-mulkiga ega bo‘lishligi;
- tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega bo‘lishi;
- o‘z mol-mulki doirasida mustaqil javobgarligi;
- o‘zlarining buzilgan huquqlarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega ekanligi hisoblanadi.

Demak, tadbirkorlik sub'ektlari deb belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan, o'zining mulkiga, tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan, o'z faoliyati yuzasidan mustaqil davogar va javobgar bo'la oladigan va o'zining huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qila oladigan turli mulk shakllariga mansub korxonalar va ularning tuzilmalari hamda yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi - yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga ega bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 80-son qaroriga muvofiq tibbiyot va farmasevtikaga tegishli bo'lgan quyidagi faoliyat turlari lisenziyalanadigan faoliyat turlariga kiritilgan:

- tibbiy faoliyat;
- farmasevtika faoliyati;
- dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizasiya qilish faoliyati.

Tadbirkorlik huquqi sub'ektlarining tasniflari

Tadbirkorlik huquqi sub'ektlarini bir necha asoslarga ko'ra tasniflash mumkin. Jumladan, mulkchilik shakliga, vakolatlariga, shaxslar doirasiga hamda faoliyat turiga asosan tasniflanadi.

Mulkchilik shakliga ko'ra - xususiy mulk, jamoa mulki yoki davlat mulkiga asoslangan tadbirkorlik sub'ektlari farqlanadi.

Vakolatiga ko'ra - bevosita tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar yoki boshqaruvni amalga oshiruvchi sub'ektlar mavjud bo'ladi.

Shaxslarga ko'ra - jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar. Jumladan, jismoniy shaxs bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari doirasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar kiradi.

Faoliyat turiga ko'ra - tijoratchi va notijorat tashkilotlarga bo'linadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari quyidagilardir:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlardagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

– qonunchilikda nazarda tutilgan yengil, oziq-ovqat sanoatidagi va qurilish materiallari sanoatidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ikki yuz kishi;

– metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochsozlik, mebel' sanoatidagi, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yuz kishi;

– mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan ellik kishi;

– fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yigirma besh kishi bo‘lgan kichik korxonalar.

Kichik tadbirkorlik sub’ektlari xodimlarining o‘rtacha yillik soni qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda belgilanadi. Bunda o‘rindoshlik, pudrat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy xarakterdagi boshqa shartnomalar bo‘yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi.

Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko‘p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik aylanma hajmida ulushi eng ko‘p bo‘lgan faoliyat turi mezonlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’ektlariga kiradi.

Kichik tadbirkorlik sub’ektlari uchun qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalar, kafolatlar va huquqlar ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan vakolatli organlarga va tashkilotlarga (davlat soliq, bojxona xizmati organlariga, davlat statistika organlariga, banklarga va boshqalarga) yozma ravishdagi murojaatlarsiz qo‘llaniladi.

Kichik tadbirkorlik sub’ektlari uchun qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik sub’ektlari uchun imtiyozlar va preferensiyalarning yagona reestrda e‘lon qilinadi hamda doimiy ravishda yangilab boriladi.

O‘zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik sub’ektlari uchun imtiyozlar va preferensiyalarning yagona reestrini shakllantirish hamda doimiy ravishda yangilab borish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mikrofirma va kichik korxona xodimlarning belgilangan o‘rtacha yillik sonini oshirib yuborgan taqdirda, xodimlar sonini oshirib yuborishga yo‘l qo‘yilgan davr uchun ular qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar, preferensiyalar, kafolatlar va huquqlardan mahrum etiladi. Ushbu qoida quyidagi hollarda tatbiq etilmaydi:

– mikrofirma va kichik korxona O‘zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarning, akademik liseylarining hamda oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzgan taqdirda, band bo‘lgan xodimlarning belgilangan o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 50 foiz oshadigan bo‘lsa. Xodimlar sonining oshirilishiga O‘zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarning, akademik liseylarining va oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilari o‘qishni tugallagan kunidan boshlab ko‘pi bilan uch yil o‘tgan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi;

– kichik korxona uyda ishlayotgan fuqarolar (kasanachilar) bilan mehnat shartnomalari tuzgan taqdirda, band bo‘lgan xodimlarning belgilangan o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 30 foiz oshadigan bo‘lsa.

Jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat va dehqon xo‘jaligi shakllarida amalga oshirishi mumkin.

Jismoniy shaxslar yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganidan keyingina birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat shartnomasining taraflari bo‘lishi mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikning amalga oshirilishi, oddiy shirkat va dehqon xo‘jaligi tuzilishi, faoliyat ko‘rsatishi hamda faoliyatining tugatilishi bilan bog‘liq munosabatlar qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor deganda, jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirish tushuniladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkor O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.

Hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) uchun ko‘pi bilan besh nafar shogirdni ularga tegishli haq to‘lagan holda jalb etishga haqlidir. Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadi, huquq va majburiyatlarni oladi hamda amalga oshiradi. Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda shaxsiy ish hujjatlari blankalaridan, muhr, shtamlardan foydalanishga haqli, ularning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagi tadbirkor ekanligi haqida dalolat berishi lozim. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy

birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunda, nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, urning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning eng oddiy shakli bo‘lib, uni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari togrisida”gi O‘RQ-328-son Qonunining “Yakka tartibdagi tadbirkorlik” deb nomlangan 6-moddasi bilan tartibga solinadi.

Bundan tashqari, jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat va dehqon xo‘jaligi shakllarida amalga oshirishi mumkin. Jismoniy shaxslar yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganidan keyingina birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat shartnomasining taraflari bo‘lishi mumkin.

Yuridik shaxs sifatida faoliyat olib borish

Tadbirkorlik sub’ektlari yuridik shaxs sifatida ham faoliyat olib boradilar. Jumladan, aksiyadorlik jamiyalari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar, oilaviy korxonalar, davlat unitar korxonalari, fermer xo‘jajiklari, to‘liq shirkat, kommandit shirkat va boshqalar. Mazkur sub’ektlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran yuridik shaxs sifatida tuzilgan deb hisoblanadi.

Yuridik shaxs tushunchasi. O‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarini faoliyat maqsadiga qarab tijoratchi tashkilot va tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlarga ajratiladi.

Tijoratchi tashkilot - bu foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo‘ygan sub’ektlar hisoblanib, (xususiy korxonalar, xo‘jalik jamiyatlari, shirkatlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy korxonalar, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin) tijoratchi tashkilotlarning huquqiy holatlari Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan.

Tijoratchi bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari o‘z oldiga muayyan maqsadni ko‘zlagan holda harakat kilib, foyda ko‘rishni ko‘zlamaydi. Bunday sub’ektlar jamoat birlashmalari, ijtimoiy fond, muassasalar va mulkdor tomonidan moliyaviy ta’minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Quyida biz tadbirkorlik sub'ektlarining har birini xususiyatlarini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Tijorat tashkilotlari

Xususiy tadbirkorlik

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqaro) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir. Xususiy tadbirkorlikning yakka tartibda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlikdan farqi shundaki, bu erda faoliyat ko'rsatuvchilar o'z faoliyatini yollanma ishchi kuchi yordamida olib boradilar. Ular yuridik shaxs sifatida ish ko'radilar va o'z korxonalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga majburlirlar.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari to'g'risidagi asosiy qoidalar

Ulushlarga (qo'shilgan hissalar) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo'lgan tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi. Muassislar (ishtirokchilar) qo'shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek xo'jalik shirkati yoki jamiyati o'z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk mulk huquqi asosida unga tegishlidir.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilishi mumkin.

Yakka tadbirkorlar va (yoki) tijoratchi tashkilotlar to'liq shirkatlarning ishtirokchilari hamda kommandit shirkatlarda to'liq sheriklar bo'lishlari mumkin.

Fuqarolar va yuridik shaxslar xo'jalik jamiyatlarida ishtirokchilar va kommandit shirkatlarda hissa qo'shuvchilar bo'lishlari mumkin.

Agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, davlat hokimiyati organlari xo'jalik jamiyatlarining ishtirokchilari hamda kommandit shirkatlarga hissa qo'shuvchilar bo'lishga haqli emaslar.

Mulkdorlar tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasalar, qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, mulkdorning roziligi bilan xo'jalik jamiyatlarining ishtirokchilari va kommandit shirkatlarga hissa qo'shuvchilar bo'lishlari mumkin.

Qonun ayrim toifadagi fuqarolarning xo'jalik shirkatlarida va jamiyatlarida ishtirok etishini taqiqlab yoki cheklab qo'yishi mumkin, aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari boshqa xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining muassislari (ishtirokchilari) bo'lishlari mumkin, Fuqarolik Kodeksda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Xo‘jalik shirkati yoki jamiyatining mol-mulkiga pul, qimmatli qog‘ozlar, pul bilan baholanadigan boshqa buyumlar yoki mulkiy huquqlar yohud boshqa shaxsga o‘tkaziladigan o‘zga huquqlar hissa sifatida qo‘shilishi mumkin.

Xo‘jalik jamiyati ishtirokchisining qo‘shgan hissasini pul bilan baholash jamiyatning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa — baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak.

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari (aksiyadorlik jamiyatidan tashqari) aksiyalar chiqarishga haqli emas.

To‘liq shirkat

Ishtirokchilari o‘z o‘rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo‘yicha o‘zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat to‘liq shirkat hisoblanadi.

Shaxs faqat bitta to‘liq shirkatning ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

To‘liq shirkatning firma nomi uning barcha ishtirokchilarining nomlari (nomlanishi)ni, shuningdek «to‘liq shirkat» degan so‘zlarni, yoxud bir yoki bir necha ishtirokchining «va kompaniya» degan so‘zlar qo‘shilgan nomi (nomlanishi)ni, shuningdek «to‘liq shirkat» degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Kommandit shirkat

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo‘yicha o‘zlarining butun mol-mulkilari bilan javob beradigan ishtirokchilar (to‘liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar doirasida javobgar bo‘ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qatnashmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo‘shuvchi, kommanditchi) mavjud bo‘lsa, bunday shirkat kommandit shirkat hisoblanadi.

Kommandit shirkatda qatnashayotgan to‘liq sheriklarning huquqlari va ularning shirkat majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi ushbu Kodeksning qoidalari bilan belgilanadi.

Shaxs faqat bitta kommandit shirkatda to‘liq sherik bo‘lishi mumkin.

To‘liq shirkat ishtirokchisi kommandit shirkatda to‘liq sherik bo‘la olmaydi.

Kommandit shirkatdagi to‘liq sherik o‘sha shirkatning o‘zida hissa qo‘shuvchi va boshqa to‘liq shirkatda ishtirokchi bo‘lishi mumkin emas.

Kommandit shirkatning firma nomi barcha to‘liq sheriklarning nomlari (nomlanishi)ni, shuningdek «kommandit shirkat» degan so‘zlarni yoki kamida bitta to‘liq sherikning «va kompaniya» degan so‘zlar qo‘shilgan nomi (nomlanishi)ni, shuningdek «kommandit shirkat» degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Agar kommandit shirkatning firma nomiga hissa qo‘shuvchining nomi kiritilgan bo‘lsa, bunday hissa qo‘shuvchi to‘liq sherikka aylanadi.

Kommandit shirkatga to‘liq shirkat haqidagi qoidalar qo‘llaniladi, agar bu hol Kodeksning qoidalariga zid bo‘lmasa.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat

Mas’uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek «mas’uliyati cheklangan» degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning huquqiy mavqei, uning ishtirokchilarining huquq va burchlari ushbu Kodeks hamda boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi ta’sis hujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat hisoblanadi.

Bunday jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha o‘z mol-mulkleri bilan qo‘shgan hissalar qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo‘lgan, jamiyatning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo‘ladilar. Ishtirokchilardan biri to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolganida uning jamiyat majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta’sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo‘lmasa, boshqa ishtirokchilar o‘rtasida ularning qo‘shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek «qo‘shimcha mas’uliyatli» degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Ushbu Kodeksning mas’uliyati cheklangan jamiyat haqidagi qoidalar, agar ushbu moddada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatga nisbatan qo‘llaniladi.

Firmalarning turlari juda ko‘p, ularni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin:



Firma (korxona) larning turlari

Aksiyadorlik jamiyatlari

Aksiyadorlik jamiyati - ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat (O'zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi).

Aksiya - o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz. (O'zbekiston Respublikasi «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasi).

Aksiyador - aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi. (O'zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunining 21-moddasi).

Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Jamiyat jamlangan kapitaliga qarab maxsus qimmatli qog‘oz – aksiya chiqaradi. Aksiyaning sotib olganlar hissdorlarga aylanishadi va foydadan o‘z hissasi – dividendni olib turadilar. Aksiyadorlik jamiyati o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli butun mol-mulk bilan javobgar hisoblanadi. Aksiyadorlar jamiyati majburiyatlari bo‘yicha javobgar emas va uning faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun faqat o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida javobgar hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi aksiyadorlar sotib olgan aksiyalarning nominal qiymatlaridan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo‘lishi lozim. Aksiya bo‘linmas hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatini:

- aksiyadorning umumiy majlisi;
- kuzatuv kengashi;
- ijro organi boshqaradi.

Aksiyadorlarning umumiy majlisi oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, u aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan bog‘liq barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega. Aksiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Aksiyadorlik jamiyatining joriy (kundalik) faoliyatiga yagona ijro organi (direktor) yoki kollegial (maslahat) ijro organi (boshqaruv, direksiya) rahbarlik qilishi mumkin.

Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati – bu aksiyadorlari o‘zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning rozilgisiz erkin tasarruf qila oladigan jamiyat. U chiqaradigan aksiyalariga ochiq obuna o‘tkazish va ularni erkin sotish huquqiga ega. Ta’sischilarning eng kam soni ham cheklanmagan. Ochiq turdagi AJ uchun ustav fondining eng kichik miqdori AJ ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanada qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi summasining ikki yuz barobari miqdoriga teng bo‘lishi kerak.

Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati – bu aksiyalari nomlangan (egasi yozilgan) va ular faqat AJ ta’sischilari o‘rtasida taqsimlangan jamiyatdir. Uning aksiyalari qimmatli qog‘ozlar bozorida muomalada bo‘lishi jamiyat Nizomiga binoan man etilgan yoki cheklangan bo‘ladi. Yopiq turdagi AJ uchun ustav fondining eng kam miqdori – AJ ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanada qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi summasining kamida yuz barobari miqdoriga teng bo‘lishi kerak.

Aksiyadorlik jamiyatining huquqiy mavqei hamda aksiyadorlarning huquq va burchlari 2014 yil 6 mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investisiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2015 yil 24 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720 sonli Farmonlarini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 2 iyuldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlarni bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlari, jumladan mamlakatimiz iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qila oladigan aksiyadorlik jamiyatlari muhim rol o‘ynamoqda va tadbirkorlik huquqining asosiy sub’ektlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mamlakatimiz ham hozirgi vaqtdagi globallashuv jarayonida dunyo iqtisodiyotiga jadallik bilan kirib bormoqda va natijada yurtimizda ko‘plab xorijiy investisiyalar ishtirokidagi yirik korxonalar, korporatsiyalar ko‘rinishidagi aksiyadorlik jamiyatlari o‘z faoliyatlarini samarali tarzda amalga oshirmoqdalar.

Korporatsiya atamasi lotincha «corporatio» so‘zidan olingan bo‘lib, birlashma, hamjamiyat ma’nosini beradi. Korporatsiya yirik aksioner jamiyatlar birlashmasi hisoblanib, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradi. Natijada ishlab chiqarish monopollashadi. Korporatsiya investitsiya kapitalining markazlashuvini, ilm-fan taraqqiyotini, mahsulotning raqobatbardosh bo‘lishini va uzoq hayot siklini ta’minlaydi. Korporatsiyalar tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi aksioner jamiyatlarining xohish-ixtiyori bilan paydo bo‘ladi. O‘z tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlari nazorat paketlarini egallash bilan korporatsiyalar xolding kompaniyalariga aylanadi.

Xolding iborasi inglizcha «holding» so‘zidan olingan bo‘lib, ega ma’nosini beradi. **Xolding kompaniya** – bu mulk egalari tomonidan bir qancha mustaqil aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan hissadorlik jamiyatidir. Xolding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari «aksiyalarining nazorat paketi» kompaniyaning ixtiyorida bo‘ladi. Bundan maqsad aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatlari ustidan nazorat o‘rnatish va dividendlar ko‘rinishida foyda olishdir.

Xolding kompaniyalarning mohiyati shundaki, ular biror bir ishlab chiqarish vazifalarini bajarishmaydi. Ularning vazifasi – sof boshqaruvchilikdan, ya’ni ishonchli mulk egasi sifatida ularga o‘z aksiyalari yoki aksiyalar nazorat paketini beruvchi kompaniyalarning faoliyatiga umumiy xo‘jalik rahbarligini bajarishdan iboratdir. O‘zbekistan Respublikasida xolding kompaniyalarning huquqiy maqomi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 12 oktyabrdagi 398-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom (xoldinglar to‘g‘risidagi Nizom) asosida belgilanadi. Bu Nizomga muvofiq aktivlari tarkibiga boshqa korxonalarning aksiyalar nazorat paketi kiradigan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati xolding hisoblanadi.

Xolding kompaniyalari ikki turda bo‘lishi mumkin:

- moliyaviy xolding;
- aralash xolding.

Moliyaviy xolding faqat maxsus nazorat va boshqaruv maqsadlarida tuziladi. Sarmoyasining 50 foizidan ko‘pini boshqa emitentlarning qimmatli qog‘ozlari va boshqa moliyaviy aktivlar tashkil qiladigan xolding moliyaviy xolding hisoblanadi. Moliyaviy xoldinglar avktivlari tarkibiga faqat qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy aktivlar, shuningdek, xoldingni boshqarish apparatining faoliyatini ta‘minlash uchun bevosita zarur bo‘lgan mol-mulk kirishi mumkin.

Aralash xolding – nazorat va boshqaruv vazifalari bilan bir qatorda sanoat, savdo, transport, kredit-moliya va boshqa sohalarda tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug‘ullanish maqsadlarida tuziladi.

Davlat korxonalari – bu davlat mulki bo‘lgan va uning nazorati ostida ishlovchi korxonalar bo‘lib, ular ishlab chiqarishdagi davlat sektorini tashkil etadi, eng muhim va mas‘uliyatli vazifalar (mudofaa, aloqa, energetika, transport va boshqalar)ni bajaradi.

Qo‘shma (aralash) korxonalar xususiy, davlat va jamoa mulkining aralash mablag‘lariga tayanadi. Aralash firmalar milliy va xorijiy kapitalga tayangan hissadorlik qoidasiga binoan tashkil topadi, foydasi shunga qarab taqsimlanadi.

Kontsern – bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, ya‘ni korxonalarning faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi asosida tarkib topadigan yirik ko‘p tarmoqli korporatsiya. Konsern tarkibiga sanoat, transport, savdo, bank kabi tarmoqlarga tegishli, ayrim hollarda, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida joylashgan o‘nlab va yuzlab korxonalar ixtiyoriy asoslarda kiradi. Konsern tarkibiga kirgan korxona va tashkilotlar orasida o‘zaro korporatsiyalangan turg‘un aloqalar mavjud bo‘lib, ular konsern rivoji yo‘lida umumiy moliyaviy resurslardan va yagona ilmiy-texnik imkoniyatlardan mushtarak foydalanadilar.

Konsortsium – bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarning muvaqqat birlashmasidir. Konsortsium a‘zolarining huquq va majburiyatlari konsortsium to‘g‘risidagi bitimda belgilab qo‘yiladi. Qo‘yilgan vazifani bajarish uchun konsortsium ishtirokchilari badallari hisobidan yagona moliyaviy va moddiy fondlar barpo etadilar, byudjet mablag‘lari va davlat bankidan kreditlar oladilar. Vazifa bajarilgach, konsortsium tarqaladi. Konsortsiumlarga boshqaruv bo‘yicha qo‘mitalar, direktorlar kengashi kabilar boshchilik qiladi. Konsortsiumlar aviatsiya, kosmos, kompyuterlar, aloqa kabi yuksak texnologik va katta miqdordagi sarmoyali sohalarda keng tarqalgan.

Konsessiya – bu lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, ruxsat, yon berish ma‘nosini anglatadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yoki tiklash, tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish maqsadida davlat yoki munitsipalitetga qarashli er uchastkalari, qazilma boyliklar, mol-mulk,

korxonalar va boshqa xo‘jalik obyektlarini muayyan muddatga va shartlar bilan foydalanish uchun chet ellik investorga davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma, ular bilan tuziladigan shartnoma yoki kelishuv. Konsessiyachilik faoliyatida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining «Konsessiyalar to‘g‘risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Kooperativ – bu kooperatsiyaning birlamchi bo‘g‘ini. Kooperatsiya esa:

- mehnatni tashkil etish shakllaridan biri, ko‘pchilik xodimlar bir mehnat jarayonida yoki o‘zaro bog‘liq turli mehnat jarayonlarida hamkorlikda ishtirok etadilar;
- guruh mulkchiligiga asoslangan xo‘jalik yuritish sharti;
- ma‘lum bir mahsulotni o‘zaro hamkorlikda tayyorlash bilan band bo‘lgan korxonalar o‘rtasidagi uzoq muddatli va barqaror aloqalar shakli.

Kartel – bu monopolistik birlashma shakli. Bir tarmoqdagi mustaqil korxonalar narxlar, bozor, ishlab chiqarishning umumiy hajmida har bir ishtirokchining hissasi, ish kuchi yollash, patentlar va boshqa masalalarda o‘zaro bitim tuziladi. Bu tuzilmaning maqsadi monopol foyda olishdir.

Sindikat – bu monopolistik birlashmaning bir turi. Ular bir tarmoq korxonalari huquqiy va ishlab chiqarish mustaqilligini saqlab qolgan holda:

- buyurtmalarni taqsimlash;
- xom ashyo sotib olish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun o‘zlarining tijorat faoliyatlarini birlashtirib, yagona idora tuzadilar.

Venchur korxonalar – bu kichik biznesning bir turi bo‘lib, ular:

- ilmiy muhandislik ishlarini bajarish;
- yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarini yaratish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- tijorat ishini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- yirik firmalar va davlat ijara kontrakti buyurtmalarini bajarish kabi ishlarni amalga oshiradilar.

Ijara korxona – bu mol-mulkni yollash bo‘yicha mulk egasi bilan tadbirkor o‘rtasidagi iqtisodiy munosabat. Ijara shartnomasiga asosan bir tomon (ijaraga beruvchi) ikkinchi tomonga (ijarachi) ma‘lum to‘lov evaziga va ma‘lum shartga ko‘ra mol-mulkini vaqtincha foydalanish uchun beradi.

Konsalting – bu ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko‘rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o‘z mijozlariga maslahat xizmati ko‘rsatish va texnik loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyatdir.

Injiniring korxona – muxandislik-maslahat xizmatlarni tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda amalga oshiradi. Bunday korxona (firma):

- ishlab chiqarishni ta'minlash;
- mahsulot sotishni uyushtirish;
- ishlab chiqarish obyektlarini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish bilan shug'ullanadi.

Shu'ba xo'jalik jamiyati

Agar bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli yohud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lsa, ushbu ikkinchi xo'jalik jamiyati shu'ba xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

Shu'ba xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

Shu'ba xo'jalik jamiyati o'z mulkida o'zining asosiy jamiyati (shirkati) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushga ega bo'lishga haqli emas. Ushbu qismda belgilangan taqiq kuchga kirguniga qadar o'zining asosiy jamiyati (shirkati) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni olgan shu'ba xo'jalik jamiyati o'zining asosiy jamiyati (shirkati) ishtirokchilari yoki aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ovoz berishga haqli emas.

Shu'ba xo'jalik jamiyati o'zining asosiy jamiyati (shirkati)ning qarzlari bo'yicha javob bermaydi.

Asosiy jamiyat (shirkat) aybi bilan shu'ba xo'jalik jamiyati to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolgan taqdirda, asosiy jamiyat (shirkat) uning qarzlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

Shu'ba xo'jalik jamiyati ishtirokchilari (aksiyadorlari) asosiy jamiyatdan (shirkatdan) uning aybi bilan shu'ba jamiyatga yetkazilgan zararni to'lashni, agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, talab qilishga haqli.

Qaram xo'jalik jamiyati

Xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning (ulushning) yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lsa, bunday xo'jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi.

Qaram xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

Qaram xo'jalik jamiyati o'z mulkida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarga ega bo'lishga haqli emas. Ushbu qismda belgilangan taqiq kuchga kirguniga qadar ishtirok etuvchi boshqa jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni olgan qaram xo'jalik jamiyati ishtirok etuvchi boshqa jamiyat ishtirokchilari yoki aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ovoz berishga haqli emas.

Xo‘jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat qaram jamiyat ustav fondining tegishli qismini qo‘lga kiritib olganligi haqidagi ma'lumotlarni qonunda nazarda tutilgan tartibda darhol e'lon qilishi shart.

Xo‘jalik jamiyatlari bir-birlarining ustav fondlarida o‘zaro qatnashishining chegarasi va bunday jamiyatlardan biri boshqa jamiyat ishtirokchilari yoki aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishida foydalanishi mumkin bo‘lgan ovozlar soni qonunda belgilab qo‘yiladi.

Ishlab chiqarish kooperativlari

Fuqarolarning shaxsiy ishtirok etish hamda a'zolarning (ishtirokchilarning) mulk bilan qo‘shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo‘jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi ishlab chiqarish kooperativi hisoblanadi. Qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta'sis hujjatlarida uning faoliyatida a'zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativining a'zolari kooperativning majburiyatlari bo‘yicha qonunda va kooperativ ustavida nazarda tutilgan miqdorlarda va tartibda subsidiar javobgar bo‘ladilar.

Kooperativning firma nomi kooperativning nomini, shuningdek «ishlab chiqarish kooperativi» degan so‘zlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi lozim.

Ishlab chiqarish kooperativlarining huquqiy mavqei va ular a'zolarining huquq hamda burchlari ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladigan va ishlab chiqarish kooperativining shakli bo‘lgan qishloq xo‘jaligi kooperativi qo‘shma qishloq xo‘jaligi kooperativi shaklida ham tashkil etilishi mumkin.

Unitar korxona

O‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxona hisoblanadi.

Unitar korxonaning mol-mulki bo‘linmasdir va u qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan korxona xodimlari o‘rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.

Unitar korxonaning ustavida ushbu Kodeks 43-moddasining to‘rtinchi va beshinchi qismlarida ko‘rsatilgan ma'lumotlardan tashqari korxona ustav fondining miqdori to‘g‘risidagi, uni tashkil etish tartibi va manbalari to‘g‘risidagi ma'lumotlar bo‘lishi kerak.

Unitar korxonaning mol-mulki unga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir.

Unitar korxonaning firma nomida uning mol-mulkining egasi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Unitar korxona rahbari, shuningdek agar bu korxonaning ustavida nazarda tutilgan bo‘lsa, kuzatuv kengashi uning boshqaruv organidir. Unitar korxonaning rahbari va kuzatuv

kengashi mulkdor tomonidan yoki mulkdor vakil qilgan organ tomonidan tayinlanadi hamda ularga hisob beradi.

Unitar korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Unitar korxona o‘z mol-mulki egasining majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi.

Unitar korxona o‘z mulkida o‘z mulkdorining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushga ega bo‘lishga haqli emas. Ushbu qismda belgilangan taqiq kuchga kirguniga qadar o‘z mulkdorining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni olgan unitar korxona xo‘jalik jamiyati (shirkati) ishtirokchilari umumiy yig‘ilishida ovoz berishga haqli emas.

Unitar korxonalarining huquqiy mavqei ushbu Kodeks hamda boshqa qonunchilik bilan belgilanadi.

Unitar korxona mol-mulkining egasi korxona majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi, ushbu Kodeks 48-moddasining uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bu qoida shu‘ba korxona ta‘sis etgan unitar korxonaning shu‘ba korxona majburiyatlari bo‘yicha javobgarligiga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona mulkdorning yoki u vakil qilgan organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan korxonaning ta‘sis hujjati uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ustavidan iboratdir.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona o‘z mol-mulkining bir qismini xo‘jalik yuritish uchun belgilangan tartibda topshirish yo‘li bilan yuridik shaxs bo‘lgan boshqa unitar korxona (shu‘ba korxona) tashkil etishi mumkin.

Muassis shu‘ba korxonaning ustavini tasdiqlaydi va uning rahbarini tayinlaydi.

Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qaroriga muvofiq davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin.

Davlat korxonasining ta‘sis hujjati uning ustavidir.

Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat korxonasining firma nomi uning davlat korxonasi ekanligini ko‘rsatishi kerak.

Davlat korxonasining o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka bo‘lgan huquqi ushbu Fuqarolik Kodeksining 178 va 179-moddalariga muvofiq belgilanadi.

Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo‘lmaganida davlat uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

Davlat korxonasi uni tuzgan davlat organining qaroriga muvofiq qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

Tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar

Matlubot kooperativi

Ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida fuqarolarning a'zolikka asoslangan ixtiyoriy birlashmasi matlubot kooperativi hisoblanib, bu birlashuv uning a'zolari tomonidan o'z mulkiy (pay) badallarini qo'shish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Matlubot kooperativining ustavida Fuqarolik Kodeksi 43-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: kooperativ a'zolari qo'shadigan pay badallarining miqdori to'g'risidagi; kooperativ a'zolari pay badallarining tarkibi va ularni qo'shish tartibi hamda ularning badalni qo'shish majburiyatini buzganlik uchun javobgarligi to'g'risidagi; kooperativni boshqarish organlarining tarkibi hamda vakolatlari va ular tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi, shu jumladan qarorlar bir ovozdan yoki ovozlarning malakali ko'pchiligi bilan qabul qilinadigan masalalar to'g'risidagi; kooperativ ko'rgan zararlarni kooperativ a'zolari tomonidan to'lash tartibi to'g'risidagi.

Matlubot kooperativining nomida uning faoliyatining asosiy maqsadi ko'rsatilishi, shuningdek «kooperativi» so'zi yoki «matlubot uyushmasi» yoxud «matlubot jamiyati» degan so'zlar bo'lishi kerak.

Matlubot kooperativining a'zolari ko'rilgan zararni yillik balans tasdiqlanganidan keyin uch oy mobaynida qo'shimcha badallar to'lash yo'li bilan qoplashlari shart. Ushbu burch bajarilmagan taqdirda kooperativ kreditorlarning talablariga muvofiq sud tomonidan tugatilishi mumkin.

Matlubot kooperativining a'zolari uning majburiyatlari bo'yicha har bir kooperativ a'zosi to'laydigan qo'shimcha badalning to'lanmagan qismi doirasida subsidiar javobgar bo'ladilar. Bu holda kooperativ a'zolari solidar javob beradilar.

Matlubot kooperativining tijorat faoliyatiga nisbatan ushbu Kodeksning tijoratchi tashkilotlar to'g'risidagi qoidalari qo'llaniladi.

Matlubot kooperativlarining huquqiy mavqei, shuningdek ular a'zolarining huquq va burchlari ushbu Kodeksga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Jamoat birlashmalari

Ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari jamoat birlashmalari hisoblanadi.

Jamoat birlashmalari o'z ustavlarida nazarda tutilgan ishlab chiqarish yoki o'zga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalarining ishtirokchilari (a'zolari) ushbu birlashmalarga mulk qilib bergan mol-mulkklariga, shu jumladan a'zolik badallariga bo'lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a'zo sifatida ishtirok etayotgan jamoat birlashmalarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar, mazkur birlashmalar esa — o'z a'zolarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar.

Jamoat birlashmalari huquqiy mavqeining xususiyatlari qonunchilik bilan belgilanadi.

Jamoat fondlari

Fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e'tirof etiladi.

Jamoat fondiga uning muassislari (muassisi) yoki vasiyat qiluvchi tomonidan o'tkazilgan mol-mulk fondning mulkidir. Fond muassislari (muassisi) yoki fond vasiyatnoma bo'yicha tashkil etilganida vasiyatnomani ijro etuvchi fondning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, fond esa muassislarning (muassisning) yoki vasiyatnomani ijro etuvchining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

Jamoat fondining mol-mulkidan fond ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi. Fond qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan o'z ustavida belgilangan maqsadlarga to'g'ri keladigan doirada shug'ullanishi mumkin. Fondning tijorat tashkilotlari ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ishtiroki qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jamoat fondi har yili o'z faoliyati to'g'risida hisobot e'lon qilib borishi shart.

Jamoat fondini boshqarish tartibi va uning organlarini shakllantirish tartibi uning ustavida belgilanadi.

Jamoat fondining ustavida Fuqarolik Kodeksi 43-moddasining to'rtinchi qismida ko'rsatilganidan tashqari quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: fond organlarining tuzilishi, vakolatlari va shakllantirilish tartibi; fond organlarining mansabdor shaxslarini tayinlash (saylash) va lavozimidan ozod qilish tartibi; fondning mol-mulkini shakllantirish manbalari; fondning, uning vakolatxonalari hamda filiallarining mol-mulkni boshqarish borasidagi huquq va majburiyatlari; fond vakolatxonalarini ochish va filiallarini tashkil etish tartibi; fondni qayta tashkil etish va tugatish tartibi; fond tugatilgan taqdirda uning mol-mulkidan foydalanish tartibi; fond ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish tartibi.

Jamoat fondining ustavida fondning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan ramziy belgisining tavsifi, shuningdek qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa qoidalar ham bo'lishi mumkin.

Jamoat fondlari huquqiy holatining xususiyatlari qonunchilik bilan belgilanadi.

Muassasalar

Boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘la yoki qisman moliyaviy ta‘minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanadi.

Muassasaning o‘ziga biriktirib qo‘yilgan va o‘zi sotib olgan mol-mulkka bo‘lgan huquqlari Fuqarolik Kodeksining 178 va 180-moddalariga muvofiq belgilanadi.

Muassasa o‘z majburiyatlari bo‘yicha ixtiyoridagi pul mablag‘lari bilan javob beradi. Bu mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo‘ladi.

Ayrim turdagi davlat muassasalari va boshqa muassasalar huquqiy mavqeining xususiyatlari qonunchilik bilan belgilanadi.

Yuridik shaxslar birlashmalari

Tijorat tashkilotlari o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi uyushmalar (ittifoqlar) va o‘zga birlashmalariga birlashishlari mumkin. Agar ishtirokchilarning qaroriga muvofiq uyushmaga (ittifoqqa) va o‘zga birlashmaga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish vazifasi yuklatilsa, bunday uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashma ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda xo‘jalik shirkati yoki jamiyatiga aylantirilishi kerak yoxud tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun xo‘jalik jamiyatlari tuzishi yoki ularda ishtirok etishi mumkin.

Notijorat tashkilotlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek mushtarak manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) shaklida birlashmalar tuzishlari mumkin.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalar yuridik shaxs hisoblanadi.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning a‘zolari o‘z mustaqilliklarini va yuridik shaxs huquqlarini saqlab qoladilar.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalar o‘z a‘zolarining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning a‘zolari ularning majburiyatlari bo‘yicha uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning ta‘sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda va tartibda subsidiar javobgar bo‘ladilar.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning nomi ularning asosiy faoliyatini ko‘rsatishi, unga «uyushmasi», «ittifoqi» so‘zlari yoki birlashma turini ko‘rsatadigan boshqa so‘z kiritilgan bo‘lishi kerak.

Qonunchilikda yuridik shaxslar birlashmalari huquqiy mavqeining xususiyatlari belgilanishi mumkin.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilaridir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yaratgan yoki sotib olgan mol-mulk ularning mulkidir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy mavqei qonunchilik bilan belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining huquqlari**Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari:**

- qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga;
 - yuridik shaxs bo‘lgan boshqa tadbirkorlik sub’ektlarining muassislari (ishtirokchilari) bo‘lishga;
 - mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka egalik qilishga, undan foydalanish va uni tasarruf etishga;
 - o‘z faoliyati yo‘nalishlarini, tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarni va o‘z tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) iste’molchilarini mustaqil ravishda tanlashga;
 - tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olishga, bundan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorida ustun mavqeni egallab turgan tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari mustasno;
 - o‘z tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini), ishlab chiqarish chiqindilarini bozor kon’yunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo‘yicha yoki shartnoma asosida realizasiya qilishga, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
 - barcha ishlab chiqarish xarajatlarining o‘rni qoplanib, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin qolgan daromadni (foydani) erkin tasarruf etishga, sud tartibidagi majburiy undiruv hollari bundan mustasno;
 - kreditlar olishga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini hamda o‘zga mol-mulkini shartnoma shartlari asosida jalb etishga, shu jumladan binolarni, inshootlarni, uskunalarni va o‘zga mol-mulkni olishga va (yoki) tekin, ijaraga (lizingga) olishga hamda ularni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirishga;
 - tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga haqli.
- Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining majburiyatlari**Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari:**

- o‘zlari tuzgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishi;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi;
- mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslarning mehnat haqini qonunchilikda Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lmagan miqdorda belgilashi, ular bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilishi, shuningdek ish beruvchi sifatida o‘z fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilishi;
- mehnatni muhofaza qilish hamda xavfsizlik texnikasi, ekologiya, sanitariya va gigiena sohasidagi qonunchilik va normativ hujjatlar talablariga rioya etishi;
- raqobat to‘g‘risidagi va iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish haqidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;
- realizasiya qilinadigan mahsulot va xizmatlar uchun sertifikatlariga ega bo‘lishi;
- joylashgan yeri (pochta manzili) va boshqa rekvizitlari o‘zgarganligi to‘g‘risida tegishli davlat organlarini o‘z vaqtida xabardor qilishi;
- buxgalteriya, tezkor va statistika hisobini qonunchilik talablariga muvofiq yuritishi;
- o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishli davlat organlariga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etishi shart.
- tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining birlashmalari

Tadbirkorlik sub’ektlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek o‘z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari birlashmalarining tashkil etilishi, faoliyat ko‘rsatishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog‘liq munosabatlar qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ekti huquqlarining ustuvorligi

Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek banklar bilan o‘zaro munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati sub’ekti huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qilib, unga muvofiq qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati sub’ektining foydasiga talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 mayda yangi tahrirda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi 328-son Qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi.
11. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 19-son, 210-modda; 2015 y.. 33-son, 439-modda, 52-son, 645-modda; 2016 y., 17-son, 173-modda, 39-son, 457-modda.
12. Tadbirkorlik sub’ektlari va ularning turlari. Mualliflar jamoasi – Toshkent: TDYuU, 2018. 148 bet.
13. Azizov X., Berdiqulov M. Aksiyadorlik jamiyatlari, ularda aksiyadorlarga dividend to‘lashing huquqiy masalalari. // Huquq va burch ijtimoiy-huquqiy jurnal, 2015 yil 4(12)-son. B.52-54.
14. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 19-son, 210-modda; 2015 y.. 33-son, 439-modda, 52-son, 645-modda; 2016 y., 17-son, 173-modda, 39-son, 457-modda.